

ELEKTR ENERGIYA KORXONALARIDA XUSUSIY KAPITAL AUDITINI O‘TKAZISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Berdiyev Qahramon Hakimovich

*Qarshi davlat texnika universiteti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida dotsenti,
i.f.f.d. (PhD)*

qahramon.berdiyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada auditning xalqaro standartlariga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlarining xususiy kapital hisobotini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishda auditning ish sifatini oshirish va odilona audit xulosasini shakllantirishda xususiy kapitalni auditini tekshiruvidan o‘tkazishda audit elementlarini ishlab chiqish muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: *xalqaro standartlar, xususiy kapital, ustav kapital, qo‘shimcha kapital, rezerv kapitali, sotib olingan xususiy aksiyalar, taqsimlanmagan daromad, maqsadli tushumlar, kelgusi xarajatlar, to‘lovlar rezervlari.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРОВЕДЕНИЯ АУДИТА СОБСТВЕННОГО КАПИТАЛА В ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Бердиев Кахрамон Хакимович

*Доцент кафедры “Бухгалтерский учет и аудит” Каршинского государственного технического университета, кандидат экономических наук,
доцент*

qahramon.berdiyev@gmail.com

Аннотация: В данной статье обсуждаются подходы к разработке аудиторских элементов при проведении аудита собственного капитала акционерных обществ в соответствии с международными стандартами аудита. Особое внимание уделяется повышению качества аудиторской работы и формированию объективного аудиторского заключения в процессе проверки отчетности по собственному капиталу.

Ключевые слова: *международные стандарты, собственный капитал, уставный капитал, добавочный капитал, резервный капитал, выкупленные собственные акции, нераспределённая прибыль, целевые поступления, будущие расходы, резервные обязательства.*

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR AUDITING EQUITY CAPITAL IN ELECTRIC POWER ENTERPRISES

Berdiyev Khahramon Hakimovich

*Associate professor, PhD in economics, department of "Accounting and audit",
Karshi state technical university*

qahramon.berdiyev@gmail.com

Abstract: This article discusses the development of audit components in auditing equity capital of joint-stock companies in accordance with international auditing standards. The focus is on improving the quality of audit procedures and ensuring the formation of a fair and objective audit opinion during the review of equity capital reporting.

Keywords: *international standards, equity capital, charter capital, additional capital, reserve capital, repurchased treasury shares, retained earnings, targeted revenues, future expenses, reserve liabilities.*

KIRISH

Bugungi kunda raqobatbardoshlikni ta'minlash asosida xo'jalik subyektlarida kapital eng muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib mulkdorlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rivojlantirishda va investitsion jozibadorligini oshirishda xususiy kapital auditini tashkil etish va takomillashtirish orqali barqaror iqtisodiyotni ta'minlash imkoniga erishish muhimdir. Xususiy kapital har bir xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining asosiy ko'rsatkichidir. Xususiy kapital iqtisodiy resurslarni jalb qilishda o'z kapitali va qarz kapitalining yig'indisi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda ya'ni biznes jarayonlarini moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik subyektlarining iqtisodiy jarayoni ma'lumotlarining ishonchliligini auditoplilik tekshiruvini o'tkazishda xususiy kapital auditini alohida o'rin tutadi. Xususiy kapital auditini ishonchli bo'lishligi audit o'tkazishda to'g'ri tanlangan metodikaga bog'liq. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda xususiy kapital auditini o'tkazishda ma'lumotlarning to'liqliligi, haqqoniyligi, moliyaviy hisobot shakllarida to'g'ri va aniq o'z vaqtida aks ettirish, meyoriy hujjatlarga muvofiqliligini ta'minlash audit tekshiruvini ishonchliligini ta'minlaydi. Xususiy kapital auditini o'tkazishda xo'jalik subyektning hisobot davrida shakllangan kapital to'g'risidagi ma'lumotlarni auditorlik hisobotlari bilan o'zaro muvofiqligini ta'minlash zarur.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar sanoat sohasini ham qamrab olmoqda. Bugungi kunda elektr energiya sohasiga mamlakatimizda alohida e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirishda elektr energiya korxonalarini o'rni

oshib bormoqda. Elektr energiyani tejash, undan oqilona foydalanish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Elektr energiya xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda xarajatlarni to'g'ri hisobini yuritish, xizmatlar tannarxini to'g'ri aniqlash, ortiqcha sarf xarajatlarga yo'l qo'ymaslik o'ta muximdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xususiy kapital auditini o'tkazish metodikasi, o'tkazish bosqichlar, auditni rejalashtirish, tekshirish natijalarini rasmiylashtirish bo'yicha iqtisodchi olimlar va amaliyotchilarning fikrlarini keltirib o'tamiz.

Ya.Ya.Parasotskaya xususiy kapital auditida ustav kapitalining tarkibi va aksiyalar chiqarish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, aksiyalarning nominal qiymatlarini tekshirishni ham ko'rsatib o'tgan [1].

M.E.Vasilenko, D.D.Shakinalar xususiy kapital auditida quyidagilarni tekshirishni rejalashtirishni qayd etishgan: «ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda [2].

N.Sh.Xajimuratovning yozishicha: “Auditorlik tekshiruvlarining sifati va samaradorligi tekshiruv jarayonining to'g'ri rejalashtirilishiga bog'liqdir. Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirishda auditning xalqaro standartlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda keltirilgan talablarga rioya qilish zarur. Bu esa auditorlik tashkilotining auditorlik tekshiruvlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bahsli holatlarning oldini olishni ta'minlaydi” [3].

Tadqiqotchi I.F.Umarbekovaga ko'ra, bugungi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi energiya yetkazib beruvchilar faoliyatiga ham yangi turdagi asosiy vositalar kirib kelmoqda, chegaradosh qo'shni davlatlar bilan doimiy ravishda eksport va import munosabatlariga kirishilmoqda, xalqaro kredit liniyalaridan sohani rivojlantirish uchun ssudalar jalb etilmoqda. Shularni hisobga olib, elektr energiyasini yetkazib beruvchi xo'jalik subyektida buxgalteriya hisobini, xususan ularda energiyani ishlab chiqaruvchilaridan xarid qilish hisobini samarali yo'lga qo'yish va uni yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Energiya audit —foydalanilgan yoqilg'i-energetika resurslari va energiya samaradorligi ko'rsatkichlari to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarni to'plashga, ularga ishlov berishga hamda ularni tahlil qilishga, shuningdek xulosa tayyorlashga qaratilgan faoliyat [5].

METODOLOGIYA

Xususiy kapital hisobi auditini o'tkazishda auditning xalqaro standartlaridan foydalanish bo'yicha iqtisodchilar tomonidan berilgan ta'rif va fikrlar umumlashtirilgan. Xususiy karital hisobi va hisobotini AXSlari asosida yuritish va uning uyg'unlashuvini oshirish masalalari ilmiy jihatdan o'rganilgan. Mavzuni yoritishda adabiyotlar sharhi, ma'lumotlarni guruhlash va taqqoslash metodlaridan

foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yoqilg'i-energetika resurslari iste'molchilarining energiya auditi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladi. Energiya auditi energiya auditi xizmatlarini ko'rsatuvchi va iste'molchi o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan o'tkaziladi [6].

Xo'jalik subyektlarida ustav kapitalini auditorlik tekshiruvdan o'tkazishda ustav kapitali miqdorining kamayishi yoki ko'payishi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish muhimdir. Aksiyadorlik jamiyatlarida har yili majburiy auditorlik tekshiruvlari o'tkaziladi. Auditorlik tekshiruvda aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapitalni shakllantirishda o'zining aktivlari bilan ishtirok etgan mulkdorlar ulushlari hamda ularni to'lash tartiblari, taqsimlash jarayonlarini O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda moslik holatini, o'z vaqtida dividendlar to'lanishi, mablag'larni to'g'ri ishlatilishi ya'ni buxgalteriya hisobi va hisobotlarida o'z vaqtida to'g'ri aks ettirilganligi o'rganiladi. Aksiyadorlik jamiyatlarini auditorlik tashkilotlari tomonidan xususiy kapital auditini o'tkazishda 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar auditor elementlari bo'lib hisoblanadi.

1-jadval

Xususiy kapitalni audit tekshiruvdan o'tkazishda audit elementlari¹

Kapital tarkibi	Audit elementlari	Rejalashtirilgan xususiy kapital auditi va ish turlari
Ustav kapitali	Ustav kapitalning tarkibi va shakllanishi	Korxonaning chiqarilgan aksiyalarini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tekshirish. Oddiy va imtiyozli aksiyalarning va ularning nominal qiymatiga muvofiqliligini tekshirish. Ustavda e'lon qilingan va joylashtirilgan aksiyalarning turlari va miqdorining mosligini tekshirish.
	Ustav kapitali hajmi	Ustav kapitalining qonun bilan belgilangan eng kam miqdorini muvofiqliligini tekshirish. Kapitalning qonunchilik bo'yicha o'zgarishining asosililigini va uni buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga aks ettirilganligini tekshirish.
	Ustav kapitaliga haq to'lash	Qabul qilingan to'lov shakllarining haqiqiyliги, buxgalteriya hisobida jarayonlarni aks ettirish va ustavda ko'zda tutilgan to'lov shartlariga amal qilinganligini tekshirish.
Qo'shim-	Mulkni qayta baholash	Asosiy vositalarni qayta baholash (pasaytirish)

¹ Muallif ishlanmasi.

cha kapital		summasini, amortizatsiyasidagi o'zgarishlar summasini to'g'ri hisoblashning va xo'jalik subyektning buxgalteriya hisobi va operatsiyalarida aks ettirilishining haqiqiyligini tekshirish.
	Mulkdorlar o'rtasida hosil bo'lgan mablag'lar bo'yicha qo'shimcha kapital	Ustav kapitalini shakllantirishda valyuta kurs farqlarini to'g'riligini va buxgalteriya hisobiga to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish.
Rezerv kapitali	Mulknı qayta baholash	Mulk qiymatining kamayishi yoki optishi va eskirish summasini buxgalteriya hisobida operatsiyalarni to'g'ri aks ettirilish tartibini tekshirish
	Rezerv kapital fondi	Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yillik ajratmalar miqdori tekshiriladi.
	Tekinga olingan mulk	Tekshiruv davrida mulknı haqqoniy qiymatiga mosligi va qiymatini to'g'ri hisobdan chiqarilishi va buxgalteriyada to'g'ri hisobga olinganligini tekshirish.
Sotib olingan xususiy aksiyalar	Oddiy va imtiyozli aksiyalar	Xo'jalik subyektida sotib olingan xususiy aksiyalarining qiymatlarini to'g'ri hisobga olinishini tekshirish.
Taqsimlanmagan daromad	Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi	Hisobot davrining soliq to'languncha bo'lgan daromad, daromad solig'i xarajatlari, soliq sanksiyalari hamda haqiqiy olingan daromad solig'i qayta hisob kitobi bo'yicha to'lovlarni va buxgalteriya hisobi va hisobotlarida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish
	O'tgan yillar jamlangan foydasi	O'tgan davrlardagi taqsimlanmagan daromadlarini buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishini va foydalanishning to'g'riligini tekshirish
Maqsadli tushumlar	Grantlar	Olingan grantlar miqdori va ularni olish tartiblari hamda bajarilganligi va buxgalteriyada to'g'ri hisobda olinganligini tekshirish.
	Subsidiyalar	Subsidiyalarning maqsadi va hajmini tekshirish.
	A'zolik badallari	Xo'jalik subyektida tushirilgan a'zolari badallarining maqsadi va uning muddati hamda buxgalteriya hisobida aks ettirilishini tekshirish.
Kelgusi	Kelgusi xarajatlar va	Zaxiralar shakllantirilgan manbalari va

xarajatlar va to'lovlar rezervlari	rejalashtirilgan xarajat nuqtalari	miqdorlari tekshiriladi.
---	---------------------------------------	--------------------------

Aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital auditini to'g'ri tashkil qilish orqali xo'jalik subyekti xodimlari va mulkdorlari o'rtasidagi yuzaga keladigan muammolarni oldini olishga imkon beradi.

Biz tadqiqotlarimizning natijadorligini oshirish maqsadida me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rgandik, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunida [7] auditorlik faoliyati samaradorligini oshirish, auditorlik xizmatlari sifatini xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangani e'tiborga loyiqdir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida [8] auditorlik tizimini modernizatsiya qilish, sohani raqobatbardosh qilish va xalqaro amaliyotga integratsiyalash bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Xususan, elektr energiya sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun bu talablar xususiy kapitalning ishonchli va shaffof hisobini yuritish, uning shakllanish manbalarini aniqlik bilan aks ettirish, taqsimlanmagan foyda va zaxiralar bo'yicha haqiqiy holatni aniqlash orqali investitsiyaviy qarorlar qabul qilishda ishonchli axborot bazasini yaratish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Ushbu holat elektr energiya korxonalarida xususiy kapital auditini zamonaviy metodikalar asosida takomillashtirishni nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham ustuvor yo'nalishlardan biriga aylantirmoqda.

XULOSA

Mamlakatimizda jahon amaliyotidan kelib chiqqan holda raqamli iqtisodiyotga o'tish masalasi dolzarb bo'lib, unga o'tishning me'yoriy-huquqiy asosi yaratilmoqda. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda zamonaviy auditni tashkil qilish va raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha yo'nalishlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Shuningdek, bu auditorlik tekshiruv xizmatlarini o'z ichiga qamrab olgan axborot xizmatlarining tashkiliy, texnik va uslubiy ta'minotini yaxshilashga xizmat qiladi. Xususiy kapital auditini o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va me'yoriy talablarga moc kelgan holda ustav kapitalining shakllanishini o'rganish bilan birgalikda AXS dan keng foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Парасоцкая Я.Я. Аудит собственного капитала предприятия. Ж. Аудит. 2010. №8 (248).
2. Василенко М.Е., Шакина Д.Д. Собственный капитал организации и

особенности его аудита. 2018. <https://cyberleninka.ru/article/n/sobstvennyy-kapital-organizatsii-i-osobennosti-ego-audita-1>. 21.10.2020.

3. Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlash yo'nalishlari. Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi 2020, 3(135). 72-77 b.

4. Urmanbekova, Iroda Farxodovna (2022). Elektr energiya korxonalarida xarajatlarni buxgalteriya hisobi va tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 889-892.

5. O'zbekiston Respublikasining 07.08.2024 yildagi "Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida"gi O'RQ-940-son Qonuni.

6. <https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6152>.

7. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevralda qabul qilingan "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-son Qonuni. (manba: www.lex.uz).

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3946-sonli Qarori, (manba: www.lex.uz).

9. <https://www.pwc.de/en/private-equity/auditing-accounting.html>